

INTERER KOMPOZITSIYASINI BOSQICHLI ISHLASH, ESKIZ TAYYORLASH


Xasanova Marjona Amirovna

Annatatsiya. Manzara janri — tasviriy san’at janrlarining muhim janri bo‘lib, manzara rangtasviri ham rangtasvir dasturining kerakli bo‘limi bo‘lib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir. Manzara tasviriy san'atning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Go'zal manzara asarlar o'zining nafosatli ta'siri bilan insonni ma'naviy boyitishga erishadi. Inson tomonidan atrof dunyoni ma'naviy (qisman amaliy) o'zlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirgan manzara o'zida katta ma'no tashiydining bir necha turlari mavjud: Shahar (Arxitektura), Kishloq(tog'), sanoat (zavod, fabrika, inshoot ko'rilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari asarlari va rassomlarning ushbu mavzudagi turli asarlari talqini yoritilgan

Kalit so'zlar: Peyzaj, lirik, arxitektur, burma, marina, eskiz, fabrika. Kalit so'zlar: interyer, kompozitsiya, eskiz, dizayn, loyihalash, fazoviy yechim, ranglar uyg'unligi, jihozlash, badiiy bezak, ijodiy yondashuv.


Interyer kompozitsiyasini mukammal chizish uchun avvalo xomaki chizgi lavhalarni o'rganib olish maqsadga muvofiqdir. Bunda interer kompozitsiyasini xomaki chizgi lavhalarda bosqichli ishlash jarayonni ko'rib chiqamiz.

1. A3 formatdagi qog'ozning chetiga parallel ravishda bitta chiziq chizamiz, so'ngra ikkinchisini - ufq chizig'ini chizamiz, uning markazida biz bitta yo'qolib ketish nuqtasini aniqlaymiz va chiziqning chetidan chetga parallel ikkinchi yo'qolib ketish nuqtasini aniqlaymiz (rasm 34).




rasm 34

2. Keyin to'rtburchakning xususiyatlarini tasvirga qo'llaymiz, ularning aksariyati ufq chizig'i ostida joylashgan. Asosiy g'oyib bo'lgan nuqtadan biz nurlarni parallel chiziqlarning chetiga tortamiz - bu devorlar, ship va zaminning konturlari (rasm 35)




rasm 35

3. To'rtburchaklar ichidagi yordamchi chiziqlar o'chirilib, mebelning (tasavvur yoki natura orqali) konturlarini chizishni boshlaymiz hamda chiroqini, eshik, divanning orqa tomoni va boshqalar (rasm 36).



rasm 36

4. Biz yo‘qolgan nuqtadan yana bir nechta chiziq chizamiz chiroqning oval konturlarini chizamiz va kamin biroz qalam yurgizamiz.



rasm 37


5. Keraksiz bo‘lib qolgan chiziqlarni o‘chirib tashlaymiz va mebelning konturlarini chizishda davom etamiz (rasm 3).



rasm 38

6. Asosiy g'oyib bo'lgan nuqtadan yana bir nechta chiziqlarni tortish lozim chunki ular divan, deraza, chiroq, rasmlar yoki sizga kerak bo'lgan boshqa narsaga aylanadi. Yostiqlar, kofe stoli va boshqa narsalarning konturlarini chizish orqali bu narsalar qog'ozda qanday ko'rinishi kerakligi sizga ayon bo'ladi (rasm 38).

7. Esingizdami, birinchi bosqichda qog'oz chetiga o'rtadgi yo'qolib ketish nuqtasiga paralel ikkinchi yo'qolib ketish nuqtasini chizganimiz bizda hali ham ikkinchi yo'qolib ketish nuqtasi bor edi? Bu ikkinchi yo'qolib ketish nuqtasi mebelni rasmning boshqa tomoniga to'g'ri joylashtirish uchun kerak. Biz kerakli chiziqlarni chizamiz va stulning konturlarini chizamiz (rasm 39).



rasm 39

Har qanday xonani xuddi shu tarzda tasvirlash mumkin, lekin masalan, bolalar xonasining ichki qismini yoki oshxonani ichki qismini chizmoqchi bo'lsak albatta bolalar xonasining ichki qismida o'qish uchun joy, parta va kitob javoni va oshxonani ichki qismida bo'lsa ogshxona stolining joylashishini chizishni, umuman olganda har bir honani u qanday hona ekaniga qarab ichki qismidagi narsalarni joylab chizishni unutmang (rasm 40).



rasm 40

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kompozitsiya asoslari" (G'.M. Abduraxmonov / S.A. Abdurasulov) — 2010-yil (Toshkent, "Iqtisod-moliya").
2. "Kompozitsiya kartini. Teoriya i uprajneniya" (Yevgeniy Stasenkov) — 2018-yil.
3. "Osnovi kompozitsii" (O.L. Golubeva) — 2004-yil (birinchi nashrlari) va keyingi qayta nashrlar (masalan, 2008, 2014).
4. "Miniatyura kompozitsiyasi" (M. Sabirov) — 2019-yil (Toshkent, "Lesson Press").Arxitektura va Kostyum dizayn